

51. 0 bilan tugagan sonlarni bo'lish

Yondosh mavzu:
qurilishga oid kasblar.

Bo'linuvchi, bo'luvchi, to'liqsiz
bo'linma, qoldiq.



1. Sonlarni yirikroq xonali sonlar shaklida yozib, namunaga qarab hisoblang.

a) 4500 ta g'ishtni 900 tadan qilib taxlashdi.

Nechta taxlam bo'ldi?

Namuna:

$$4\ 500 : 900 = 45 \text{ yuzl.} : 9 \text{ yuzl.} = 5$$



b) 350 qop sementni ko'tarma kran yordamida ko'tarishdi. Kran bir martada 50 qopni ko'tara olsa, jami necha marta ko'targan bo'ladi?


d) Yuk mashinasi bir kunda 200 litr yoqilg'i sarflaydi. 80 000 litr yoqilg'i necha kunga yetadi?



e) Usta bir kvadrat metr g'isht devor urish uchun 200 000 so'm oladi. Agar usta jami 82 600 000 so'm olgan bo'lsa, necha kvadrat metr devor urgan bo'ladi?

0 bilan tugagan sonlarni bo'lish

Bir yaxlit sonni boshqa yaxlit songa bo'lish uchun har bir sonning o'ng tomonidan bir xil sondagi 0 larni olib tashlab, keyin bo'lish kerak. Bo'luvchida nechta 0 bo'lsa, shuncha 0 ni olib tashlash kerak. Agar bo'linuvchining o'ng tomonidan 0 lar qolgan bo'lsa, ular bo'linmaga o'tkaziladi.



51. 0 bilan tugagan sonlarni bo'lish



2. Bo'lishni burchakli usulda bajaring.

$$175\,000 : 700$$

$$672\,000 : 80$$

$$468\,000 : 50$$

$$5\,640\,000 : 3\,000$$

$$75\,600 : 70$$

$$9\,440\,000 : 4\,000$$



3. Uyning poydevori to'g'ri to'rtburchak shaklda, uning bo'yi 30 m, yuzi 810 m^2 . Uyning enini toping



4. Jadvaldan foydalanib, masalani daftarda yeching. Yuk mashinaga bir martada 8 kubometr qum yoki 5 000 dona g'isht yuklash mumkin. Qurilishga 6 600 kubometr qum va 785 000 dona g'isht kerak bo'lsa, yuk mashinasi bu yerga necha marta qatnashi kerak?

	Olib kelish kerak	Bir martalik qatnovda	Qatnashlar soni
Qum	6 600 kub.m	8 kub.m	?
G'isht	785 000 dona	5 000 dona	?
Jami			?



5. Ilgari armiyada qarigan otlarni yoshlariga almashtirish shunday atalgan. Hozir bu so'z bizda butunlay boshqa ma'noni bildiradi. Shu so'zni toping.

E $316 + 184 + 112$

N $447 + 225 + 53$

O $500 - 118 - 182$

R $429 - (129 + 120)$

M $(237 + 112) - 137$

T $(272 + 319) - 119$

180	612	212	200	725	472
-----	-----	-----	-----	-----	-----

51. 0 bilan tugagan sonlarni bo'lish



6. Yig'indini bir songa bo'lish xossasidan foydalaning. Shunda nechta amal tejaladi?

$$4\,590 : 30 + 4\,410 : 30$$

$$6\,480 : 80 + 1\,520 : 80$$



7. Yaxlit sonlarni bo'lish qoidasini eslang. Hisoblab, javoblarni kamayish tartibida yozib chiqing. Har qanday qurilishni boshlashdan oldin mutaxassis kelib, bino quriladigan joyni, shu yerdagi tuproqning holatini o'rganadi. Bu mutaxassisning kasbi nima deb ataladi?

G	$72\,000 : 9$	E	$560\,000 : 80$	O	$42\,000\,000 : 7\,000$
D	$36\,000 : 60$	Z	$80\,000 : 400$	S	$160 : 2$
E	$200\,000 : 400$	I	$900 : 9$	T	$32\,000 : 8\,000$



8. Qirol saroyini qurgan 4 ta bo'yoqchi bilan 3 ta g'isht teruvchiga 74 ta tilla tanga, 3 ta bo'yoqchi bilan 4 ta g'isht teruvchiga 66 ta tilla tanga to'landi. Bitta g'isht teruvchi bilan bitta bo'yoqchiga nechta tanga to'langan?



9. Zanjir bo'yicha hisoblang.



10. Ko'pqavatli uy qurish uchun bo'yi 77 m, eni 18 m keladigan xandaq kovlandi. Bu xandaqning atrofini o'rab chiqish uchun nechta metr to'rtli sim kerak? Bu uyning yuzi qancha?